



Korxonalar va tashkilotlar (2019-yil 1-iyul holatiga)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan
o'tgan

14123
ta

2019-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 3064 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1909 taga ko'pdir.

Faoliyat
ko'rsatayotgan

13985
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3634 ta (35,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 13985 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil
etilganlar

3064
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-iyul holatiga)

14123 tani
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar
soni, birlikda



33,2 %




O'tgan yilning shu
davriga nisbatan
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-iyul holatiga 14123 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,2 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 17,0 % sanoat, 8,2 % qurilish, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,8 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3326 ta) savdo, (2400 ta) sanoat, (1157 ta) qurilish, (1547 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1102 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (537 ta) tashish va saqlash, (245 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (171 ta) axborot va aloqa hamda (3638 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 13985 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3634 ta (35,1 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3896 ta), Karmana (2311 ta), Qiziltepa (1590 ta) va Xatirchi (1521 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (602ta), Konimex (448 ta) hamda Tomdi (251 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-iyun oylarida 3064 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1909 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1095 ta), sanoat (686 ta), qurilish (210 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (252 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (43 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (27 ta), tashish va saqlash (82 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



1095

Tashish va saqlash



82

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



252

Qurilish



210

Sanoat



686

Axborot va aloqa



43

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



27

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



372


Boshqa turlari





297

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (673 ta), Karmana (406 ta), Qiziltepa (401 ta) va Xatirchi (419 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (205 ta), Konimex (97 ta) hamda Tomdi (64 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.



Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 11926 tani tashkil qildi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



166 ta



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 marta o'sgan.


Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 166 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 95 taga yoki 2,3 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 102 tasi qo'shma, 64 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 61 ta (jamidagi ulushi 36,7 %), Karmana 35 ta (21,1 %), Nurota 17 ta (10,2 %) tumanida hamda Zarafshon shahar 11 tani (6,6 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Konimex 6 ta (3,6 %), Uchquduq 6 ta (3,6 %) va Tomdi 3 ta (1,8 %) tumanlarida tashkil etgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



1


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 52 tani tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 10 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Eron Islom Respublikasi 8 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 3 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 2 ta, Avstraliya 2 ta, Qozog'iston Respublikasi 3 ta, Afg'oniston Respublikasi 1 ta, Vengriya Respublikasi 2 ta, Hindiston Respublikasi 3 ta, Tojikiston Respublikasi 1 ta, Turkiya Respublikasi 3 ta, Turkmaniston Respublikasi 1 ta, Isroil Davlatlarida 1 ta, Indoneziya Respublikasi 1 ta, Qirg'iziston Respublikasi 1 tada korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 32 ta sanoat, 4 ta qurilish, 1 ta savdo, 9 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 ta yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyul holatiga)



2019-yil 1-iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11853 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 42,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida 2972 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1981 taga ko'proqdir.




•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng katta
ulushi

•Kichik tadbirkorlik
sub'ektlarining eng kichik
ulushi



•Navoiy shahri
28,4 %



•Navbahor tumani
8,8 %




•Karmana tumani
17,4 %



•Nurota tumani
7,8 %



•Qiziltepa tumani
11,4 %



•Uchquduq tumani
4,2 %



•Xatirchi tumani
10,2 %



•Konimex tumani
2,7 %




•Zarafshon shahri
7,6 %



•Tomdi tumani
1,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11853 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3291 ta (27,8 %) - savdo, 2350 ta (19,8 %) - sanoat, 1151 ta (9,7 %) - qurilish, 1505 ta (12,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1092 ta (9,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 523 ta (4,4 %) - tashish va saqlash, 183 ta (1,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 160 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1598 tasi (13,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

36,8 %



Sanoat

23,0 %



Qurilish

7,0 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,5 %



Tashish va saqlash

2,8 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

12,4 %



Axborot va aloqa

1,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

0,9 %




Boshqa turlar

7,2 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1094 ta, sanoat 684 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 370 ta, qurilish 209 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 252 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 43 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 26 ta hamda tashish va saqlashda 82 ta tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (642 ta), Karmana (395 ta), Qiziltepa (390 ta) va Xatirchi (417 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Tomdi (62 ta), Konimex (92 ta) hamda Nurota (182 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

1-iyul holatiga




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan
● Yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 26,1 % yoki 474 tasi sanoat, 18,4 % yoki 333 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 16,4 % yoki 298 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 26,9 % yoki 487 tasi savdo, 1,3 % yoki 24 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 22 tasi qurilish, 1,1 % yoki 20 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 17 tasi axborot va aloqa hamda 7,7 % yoki 138 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Navoiy viloyati statistika
boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

Tel.:71-230-84-56